

## Voleybol musobaqasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PQ-4910-son qarori ijrosi yuzasidan TIQXMMI Qarshi filiali va filial huzuridagi akademik litseyning 2021-yilga mo'ljallangan Ma'naviy-ma'rifiy va sport ishlari samaradorligini yanada oshirish yuzasidan hamkorlik yo'l xaritasi ishlab chiqilib tasdiqlangan. Yo'l xaritaning 6 - bandi ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning 2-fevral kuni filial professor o'qituvchisi E.Quvvatov tomonidan sportning voleybol turidan filial 1 - bosqich talabalari va litsey o'quvchilari o'rtasida o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazildi. Sport musobaqasi qizg'in va murosasiz tarzda kechdi. Musobaqalar yakunida ishtirokchilarga akademik litsey direktori Yo.Toshmurodov tomonidan diplom va qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.



TIQXMMI matbuot xizmati